

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY XOTIRANING O'RNI

Yo'ldashova Sevara Nuraddin qizi

Urganch davlat Pedagogika Instituti, Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401474>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda tarixiy xotiraning o'rni tadqiq qilingan. Unda milliy g'urur, uni anglash, ma'naviyat va uni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy boyliklar, ma'rifatparvarlik tushunchalari hamda uning jadidchilik harakatida nomayon bo'lish xususiyatlari, milliy mustaqillik tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, milliy g'oya, ma'naviyat, jadid, mustaqillik, qahramonlik, taraqqiyparvarlik, ziyolilik, tarixiy xotira.

THE ROLE OF HISTORICAL MEMORY IN FORMING THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Abstract. This article examines the role of historical memory in the formation of youth spirituality. It describes national pride, its realization, spirituality and the spiritual wealth aimed at its formation, the concepts of enlightenment and the features of its invisibility in the revolutionary movement, the concepts of national independence.

Key words: national pride, national idea, spirituality, modernity, independence, heroism, progressiveness, intellectualism, historical memory.

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье исследуется роль исторической памяти в формировании духовности молодежи. Описаны национальная гордость, ее реализация, духовность и духовное богатство, направленное на ее формирование, концепции просвещения и особенности его незаметности в революционном движении, концепции национальной независимости.

Ключевые слова: национальная гордость, национальная идея, духовность, современность, независимость, героизм, прогрессивность, интеллектуализм, историческая память.

Yoshlarni milliy g'oyasi va ma'naviyatini shakllantirishda tarixni o'rni katta. Tarixni o'rganish orqali inson tarixiy xotiraga ega bo'ladi. Chunki har bir jamiyat tarixiy xotira bilan tirikdir. Milliy davlatchilik va jamiyat taraqqiyotida tarix, milliy qahramonlar, xalqning azaliy va abadiy ma'naviy boyliklari muhim rol o'ynaydi.

Aynan kimlarni o'rganish kerak, buning uchun uzoq o'tmishga o'tishning xojati yo'q. Yaqin o'tmishda bo'lib, o'zbek tarixida o'chmas iz qoldirgan, millatning ertasi uchun hatto o'z jonidan voz kechgan jadidlarimizni aytganda, hech mubolag'a bo'lmaydi. Jadidlar yangi tuzum tarafdorlari, ochig'ini aytganda mustaqil fikr yuritish, mustaqil qaror qabul qilish, erkin va odil hayot qurish tarafdorlari. Aynan ularni haqiqiy qahramon desam adashmayman, chunki ularning tarix sahnasiga kelishi o'ta og'ir davrga to'g'ri keladi. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolalar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni

xalqni asriy qoloqlikdan uygʻotish — siyosiy-maʼrifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun oʻziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va oʻz vatanlarini mustaqil koʻrishni orzu qildilar va shu yoʻlda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; turli maʼrifiy jamiyatlar va teatrtruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Bu kabi harakatlarning targʻibotchilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Choʻlpon Abdulla Qodiriy, Ismoil Obidov Mahmudxoʻja Behbudiy, Fayzulla Xoʻjayev, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev (Ubaydulla Xoʻjayev), Toshpoʻlatbek Norboʻtabekov (Toshkent), Fitrat, Usmonxoʻja Poʻlatxoʻjayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Isʼhoqxon Ibrat, Muhammadsharif Soʻfizoda (Fargʻona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (Oʻsh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) va boshqalar.

1917-yil jadidchilik harakati oʻzining yangi bosqichiga qadam qoʻydi. Fevral inqilobidan soʻng oʻzbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qiladilar va „Turon“ uyushmasi zaminida „Shuroi Islomiya“ jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev).

1917-yil 14-martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targʻibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov toʻgʻrisida maʼlumot berish bilan shugʻullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda „Shuroi Islomiya“ tizimi yaratilishining tashabbuskori boʻldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi. Turkiy xalqlarni birlashtirish gʻoyasi kun tartibidan mustahkam oʻrin oldi. Oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, boshqird, tatar, turkman kabi negizi bitta xalqlarni birlashtirish va shu asosda federativ yoki muxtoriyatli davlat qurish masalasi boʻy koʻrsata bordi. Ammo, Munavvarqori soʻzi bilan aytganda, koʻpgina kishilar jumhuriyat bilan muxtoriyat oʻrtasidagi farqni tushunmagan edi. Xususan, Turkiston namoyandalari chin maʼnodagi respublikani barpo etish va uning davlat tarkibini tashkil etishga toʻliq tayyor boʻlishmagan. Qozoq va boshqird namoyandalari — Mustafo Choʻqay, Zakiy Validiy va boshqalar Peterburg ularga hech qachon mustaqillik ham, muxtoriyat ham bermasligini sezgach, Turkistonga kelib, mahalliy jadidlar bilan birga ish boshladilar. „Shoʻroi Islomiya“ning tashabbusi bilan 1917-yil 16-22-aprel kunlari Butun Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ishtirokchilari bir qancha masalalar qatorida Turkiston oʻlkasining davlat maqomi masalasini ham muhokama qildilar. 1-qurultoyda Turkiston oʻlka musulmonlari Shoʻrosi (Kraymussovet) — Milliy markazni tashkil etishga qaror qilindi. Milliy markazga rais boʻlib Mustafo Choʻqay, unga oʻrinbosarlar qilib Validiy va Asadullaxoʻjayev saylanadi. Bu esa tashkilotlarni birlashtirish bilan birga milliy ozodlik harakatini izga solib, tashkiliy jihatdan markazlashtirar edi. Turkistonni boshqarish shakli toʻgʻrisidagi masala 1917-yil 26-28-

noyabrda Qo‘qonda bo‘lgan Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyining diqqat markazida turdi. Muxtoriyat va mustaqillikni e‘lon qilish fikrini hamma qo‘llab-quvvatladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati (raisi — Muhammadjon Tinishboyev, so‘ngra Mustafo Cho‘qay) tashkil qilindi. Fitrat, Cho‘lpon, Hamza singari jadid shoirlar Turkiston Muxtoriyatini alqab, satrlar bitishdi. Aynan Turkiston Muxtoriyatini tashkil etilishi milliy g‘ururimizni anglashda dastlabki pog‘onalardan biri edi. Aynan milliy g‘ururni paydo bo‘lishiga zarur bir sharoit darkor. Aslida milliy g‘urur barchamizning qonimizda ruhumizda bo‘ladi, ammo uni uyg‘otish uchun ,sharoit kerak. U qachon bo‘ladi? U har qanday vaziyatda, yov bostirib kelganda, yurtning madhiyasi yangragada ,yoki milliy kiyimlarimizni kiyganda, davlatimiz biron bir musobaqa yoki ilm-fan, sport sohasida dunyo miqyosida yuqori o‘rinlarni egallaganda uyg‘onadi. Aynan jadidlar milliy g‘ururni anglab ,eng ko‘p his qilishgan desak adashmayman, Mustaqil Turkiston Muxtoriyati tashkil topgan kun barcha jadidlar uchun tarixiy va unitilmas edi, 1918-yil fevralda Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan qonga botirildi. Turkiston Muxtoriyati bor yo‘g‘i 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham amma o‘zbek xalqi uning fidoyi farzandlari uchun unutilmas bo‘ldi. Xalq milliy o‘zligini angladi. Mustaqillik nima ekanligini angladi. Ammo jadidlarimiz o‘z fikrlaridan hech ham qaytishmadi ular kelajakka ishonch ko‘zi bilan boqishdi. Shu payt Cho‘lponning

Bahorni sog‘indim...she‘ri yodimga tushdi

Bahorni sog‘indim, bahorni...

Ko‘rganda yerlar, olamlar to‘la qorni.

Qor... qor – Zaharli ninalar kabi Ko‘zlarga qarab oqar...

Qaydasiz, qaydasiz Latif siynalar kabi Dalalarga singgan bahor?

Cho‘lpon Kuz qo‘ynida turgan shoir "Bahorni sog‘indim" der ekan, bahor shunchaki yil fasligina emas, balki majoziy ma‘no ham kasb etadi. Shoir uchun mustamlakachilik davri go‘yo kuz izg‘irini kabi bo‘lsa, bahor istiqbol va porloq istiqbol haqidagi "ezgu tilaklar"ni anglatardi...

Hozirgi tahlikali davrni inobatga olsak, Mustaqillik qanchalik muqaddas nemat ekanligi anglab yetishimiz, shu mustaqillik uchun kimlar fido bo‘lganligini bilishimiz shuningdek mustaqilligimizni ,milliy g‘ururimizni, ma‘naviyatimizni anglab yetishimiz uchun ham shu mavzuni tanladim. Aziz yoshlar tinchligimizni faravon hayotimizni qadriga yetaylik, ajdodlarimizga munosib farzand bo‘laylik.

REFERENCES

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. "Jadidizm". Ensiklopedik lug‘at. 1. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988.
3. Manba <https://tafakkur.net/bahorni-sogindim/abdulhamid-cholpon.uz>
4. Rajabova R. va boshqalar, O‘zbekiston tarixi (1917—1993-yillar), Toshkent, 1994;